

KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOTNI TUZISHNING CHET MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNDAN MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Safarov Sobir Ixtiyor o'g'li

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

Safarovsobir@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227480>

Annotatsiya. Ushbu maqolada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha xorijiy tajriba va uning Respublikamiz iqtisodiyotida qo'llanilishi istiqbollari tahlil qilinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, korporativ guruhning umumiy moliyaviy holatini ko'rsatib beruvchi muhim vositadir. Xorijiy mamlakatlarning tajribasi, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning hisobot tizimlari, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlarga aniq ma'lumot yetkazish borasida yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatilgan. Mazkur tajribalarni o'rganish va tatbiq etish orqali mamlakatimiz korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy bozorni rivojlantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Respublikamizda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni joriy etishdagi qiyinchiliklar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ham keltirilgan. Mazkur tahlillar va tavsiyalar respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, xorijiy tajriba korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik, investitsiyalar, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОСТАВЛЕНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОЙ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ВНЕДРЕНИЯ В ЭКОНОМИКУ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация. В данной статье анализируется зарубежный опыт составления консолидированной финансовой отчетности и перспективы ее применения в экономике нашей республики. Консолидированная финансовая отчетность является важным инструментом для определения общего финансового состояния корпоративной группы.

Опыт зарубежных стран, в частности, систем отчетности США, ЕС и других развитых стран, показал высокую эффективность в обеспечении финансовой прозрачности и доведении до инвесторов точной информации. Изучая и применяя данный опыт, будут проанализированы возможности совершенствования системы корпоративного управления страны, развития финансового рынка и привлечения международных инвестиций. Также в статье рассматриваются трудности внедрения консолидированной финансовой отчетности в нашей республике и рекомендации по их

решению также цитируется. Данные анализы и рекомендации будут иметь важное значение для устойчивого развития экономики республики.

Ключевые слова: Консолидированная финансовая отчетность, зарубежный опыт корпоративного управления, финансовая прозрачность, инвестиции, международные стандарты, финансовая отчетность.

FOREIGN EXPERIENCE OF PREPARING CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS AND PROSPECTS FOR IMPLEMENTING THEM IN OUR COUNTRY'S ECONOMY

Abstract. This article analyzes foreign experience in the formation of consolidated financial statements and the prospects for its application in the economy of our Republic. Consolidated financial reporting is an important tool that indicates the general financial condition of a corporate group. The experience of foreign countries, in particular the reporting systems of the United States, the European Union and other developed countries, has been shown to be highly efficient in ensuring financial transparency and communicating accurate information to investors. Through the study and implementation of these experiences, the possibilities of improving the corporate management system of our country, developing the financial market and attracting international investments are analyzed. Also in the article, the difficulties in introducing consolidated financial statements in our Republic and recommendations for their solution also cited. These analyzes and recommendations are important in the sustainable development of the Republic's economy.

Keywords: Consolidated financial statements, foreign experience corporate governance, financial transparency, investments, international standards, financial statements.

Kirish.

Respublikamiz global iqtisodiy integratsiya va xalqaro bozorlarga chiqish jarayonlari korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobot standartlarining uyg'unlashtirish talab qilmoqda. Bu jarayonda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (KMH) muhim ahamiyat kasb etadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bir guruh kompaniyalarning moliyaviy holati va natijalarini birlashtirib, umumiy ko'rinishda taqdim etadi. Bu hisobotlar xalqaro investorlarga korporativ guruhning umumiy moliyaviy holati va faoliyat natijalari haqida to'liq va aniq ma'lumot beradi. Xorijiy davlatlar, ayniqsa AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish va qo'llash borasida katta tajribaga ega. Bu mamlakatlarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS/IFRS) va AQShning moliyaviy hisobot standartlari (GAAP) asosida ishlash moliyaviy shaffoflikni oshiradi

va investitsion muhitni yaxshilaydi. Ularning tajribasi moliyaviy hisobotni tuzish va boshqarishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va xalqaro moliyaviy bozorga integratsiyalashuv jarayonida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish va tatbiq etishning ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur maqolada xorijiy tajriba asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning asosiy jihatlari va ularning mamlakatimizsharoitida qo'llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, respublikamizda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot joriy etishdagi muammolar va ularni hal qilish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Bu jarayon respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb etishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar -bu guruh kompaniyalarining yani Bosh korxona vauning tarkibidagisho'ba korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini birlashtirib, umumiy bir hisobotda aks ettirish jarayonidir.

Ushbu hisobotlar kompaniyaning moliyaviy holatini yaxlit ko'rinishda ko'rsatadi va aksiyadorlar, investorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlarni muhim va ishonchli xabarotlar bilanta'minlaydi. Xorijiy tajriba asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning samaradorligi va uning respublikamiz iqtisodiyotidagi potentsiali ko'rib chiqiladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda qo'llaniladi. Bu standartlar moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi va oshkoraligini ta'minlaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar afzalliklari

- xalqaro investitsiyalarni jalb qilish osonlashadi
- moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi
- taqqoslanishi ta'minlanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) umumiy qabul qilingan buxgalteriya prinsiplari (GAAP) ni qo'llash uchun AQShda korxonalarda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda GAAP ni qo'llaydigan GAAP standartlari qat'iy va aniq qoidalarga asoslangan. Uning yaxshi tarafi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va aniqligi ta'minlanadi, aksiyadorlar va investorlar uchun to'liq va aniq ma'lumotlar taqdim etiladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida tuzadilar. Yevropa bo'ylab moliyaviy hisobotlarning bir xil formatda bo'lishi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Buni afzalligi yevropa bozorlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun yagona moliyaviy til yaratadi, iqtisodiy integratsiyani mustahkamlaydi.

Angliya moliyaviy hisobot sohasida boy va rivojlangan tajribaga ega bo'lib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) va mahalliy GAAP (Generally Accepted Accounting Principles) asosida ishlaydi. Angliyaning moliyaviy hisobot tizimi moliyaviy shaffoflik va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qator chora-tadbirlar bilan ajralib turadi. Angliya kompaniyalari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda quyidagi asosiy jihatlarni hisobga oladi:

Xalqaro Standartlarga Muvofiqlik: Angliya korporatsiyalari, ayniqsa, Londondagi London fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar, IFRS talablariga qat'iy rioya qiladi. Bu xalqaro investorlarga kompaniyaning moliyaviy holati haqida aniq va ishonchli ma'lumot taqdim etadi. **Moliyaviy Shaffoflik:** Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi investorlarga qaror qabul qilishda yordam beradi. Angliyada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar kompaniyaning barcha filiallari va sho'ba korxonalari faoliyatini birlashtirgan holda, moliyaviy holat va natijalarni aniq aks ettiradi. **Auditorlik va tekshirishda** Angliyaning moliyaviy hisobot tizimi kuchli auditorlik va nazorat mexanizmlariga ega. Mustaqil auditorlar kompaniyalarning moliyaviy hisobotlarini tekshiradi va bu orqali ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligi ta'minlanadi. **Axborot texnologiyalari** Angliyada moliyaviy hisobotlarni tuzishda zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo'llaniladi. Bu hisobotlarning aniq va tezkor tayyorlanishiga yordam beradi. **Regulyativ Organlar:** Angliyada Financial Reporting Council (FRC) kabi regulyativ organlar moliyaviy hisobot standartlariga rioya qilinishini nazorat qiladi va bu jarayonda kompaniyalarga maslahat va yo'riqnoma beradi. Angliyaning moliyaviy hisobot tuzish tajribasi Respublikamiz uchun bir qancha qimmatli saboqlar beradi. Bu tajribalarni o'rganish va tatbiq etish orqali Respublikamizda ham moliyaviy shaffoflikni oshirish, investorlar uchun ishonchli axborot taqdim etish va xalqaro moliyaviy bozorga chiqishda muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek, auditorlik tizimini mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish ham muhimdir.

Respublikamiz iqtisodiyotida foydalanish istiqbollariyani xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun Respublikamizdagi korxonalar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda tuzishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos keluvchi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish orqali xorijiy investorlarga o'zlarini yanada ishonchli va jozibador ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Bunday hisobot oshkorlik va hisobotlarning taqqoslanishi ortib, investitsiya muhitini yaxshilaydi. Moliyaviy shaffoflikni oshirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning muhimligi aksiyadorlar va investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (IFRS) ning

qo'llanilishikorporativ boshqaruvning samaradorligini oshiradigandamda to'g'ri va aniq moliyaviy ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Xorijiy tajriba ko'rsatganidek, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar xalqaro moliyaviy standartlarga mos kelishi juda muhim. Respublikamiz iqtisodiyotida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni qo'llash orqali xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy shaffoflikni oshirish va korporativ boshqaruvni yaxshilash mumkin. Shu orqali iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda iqtisodiy o'sishga erishish istiqbollari ancha yuqori bo'ladi.

Xulosa.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishning xorij tajribasidan o'rgangan va undan Respublikamiz iqtisodiyotida foydalanish istiqbollari tahlili, bir nechta muhim omillarni ko'rsatdi.

Xalqaro investorlarni jalb etish uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning qo'llanilishi xorijiy investorlarni jalb qilish va xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi. Aniq va ishonchli moliyaviy axborot kompaniyalarning xalqaro bozorlar va fond birjalariga kirishini osonlashtiradi.

Moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshirish uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzilishi korxonalar uchun moliyaviy shaffoflik va ishonchlilikni oshiradi. Bu moliyaviy hisobotlar investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot manbai bo'lib, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali hisobotlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish jarayonlarini tezkorlashtirish mumkin. Bu esa korporativ boshqaruv organlarining moliyaviy ma'lumotlarga tez va to'g'ri kirishini ta'minlashda yordam beradi.

Moliyaviy bozorni rivojlantirishda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzilishi orqali Respublikamiz moliyaviy bozori ham rivojlanadi. Moliyaviy shaffoflik va ishonchlilik oshgani sari, investorlar uchun xavfsizlik darajasi ham ortadi. Bu esa mahalliy fond bozorini rivojlantirish, yangi moliyaviy instrumentlar yaratish va kapital bozorini kengaytirish imkonini beradi.

Mahalliy qonunchilikni takomillashtirishda xorijiy tajribadan o'rganib, mahalliy moliyaviy hisobot standartlari va qonunchilikni takomillashtirish mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish va ularning xalqaro miqyosda tan olinishi ta'minlanadi.

Barcha ushbu istiqbollar Respublikamizda iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish, investitsiyalar oqimini kengaytirish va korporativ boshqaruv standartlarini yuqori darajada takomillashtirishda yordam beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
2. Алиев Зубайир Магомеддибирович “Формирование консолидированной финансовой отчетности холдингов в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности” Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук 28 с24.11.2011-Москва
3. Мандрощенко Виктор Михайлович “Оптимизация процесса формирования консолидированной финансовой отчетности” Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук 24с31.10.2013-Москва Aliyev.B.X., Musayeva X.M. (2013) Налоговые системы: учебник. М.: ЮНИТИ-ДАНА,
4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar to'plami.
5. Голиков Виктор Михайлович “Организация и методика аудита консолидированной финансовой отчетности, составленной в соответствии с мсфо” Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук 26с2007-Москва.
6. D.E.Norbekov, A.N.Toraev, Sh.Sh.Rakhmonov. International standards of financial reporting. Education manual . T.: Economy and finance , 2019. -332 p.
7. Chorshanbiev, U., & Obaydullaeva, G. (2023). THE ROLE OF DIVERSIFICATION IN IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ENTERPRISES. Modern Science and Research, 2(12), 1270-1273.
8. Umurzak, C., & Lobar, M. (2023). TRENDS IN IMPROVING THE ECONOMIC SECURITY OF THE ENTERPRISE. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 6-10.
9. Shahnoza, K., Umurzak, C., & Azamat, Z. (2023). The Significance of Artificial Intelligence in the Development of Science, Education and the Digital Economy. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(11), 88-92.
10. Chorshanbiev, U., & Guzalxon, O. (2023). INNOVATION DEVELOPMENT STRATEGIES IN ENSURING THE COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Modern Science and Research, 2(12), 1274-1277